

KONSEPT-TIL VA MADANIYAT OLAM MANZARASINI IFODALOVCHI VOSITA

Mohinur Tojiboyeva Sherali qizi

Fargʻona Davlat Universiteti oʻqituvchisi

Sharofat Pakirdinova Abdumutallibjonovna

Fargʻona Davlat Universiteti oʻqituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada til va madaniyatni kompleks masala sifatida oʻrganish chogʻida oʻzida ikkala oʻzaro bogʻliq fenomenani umumlashtiruvchi vosita-konseptni lingvokulturologiyaning asosiy birligi sifatida koʻrsatib berilgan.

Kalit soʻzlar: konsept, tushuncha, til, madaniyat, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika.

Rus tilshunosligida konsept tushunchasi faylasuf S. Askoldov tomonidan ilmiy muomalaga kiritiladi. Askoldovning qarashicha, konseptlar vositasida turli millat vakillari muloqotga kirishadi, shunga koʻra, konseptlarni yaratish va idrok qilish ikki tomonlama kommunikativ jarayon hisoblanadi. Lisoniy makonda mavjud boʻlgan bunday tizim dunyo milliy manzarasining oʻziga xosligini belgilaydi. XX asrning birinchi choragida konsept haqida mulohazalarga tanqidiy yondashiladi. Faqat 80-yillarga kelib, bu terminga ehtiyoj paydo boʻladi. Yu. S. Stepanov oʻzining tadqiqotlarida mental shakllanishning mohiyatini ochishga harakat qilib, konsept soʻzining etimologiyasiga murojaat qiladi. Konsept lotin tilidagi conceptus – “tushuncha” soʻzining kalkasidir. Konsept ikki tomonli xususiyatga egadir. Bir tomondan, madaniyat konsept koʻrinishida insonning mental dunyosiga kirs, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va baʼzan unga taʼsir koʻrsatadi. Inson oʻzining individual, betakror madaniyatini saqlagan holda, konsept orqali xalqlarning madaniyatiga, turli millat vakillarining mental dunyosiga murojaat qiladi.

Konseptning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlarida oʻzaro farqlanadi. Ushbu termin tilshunoslikda oʻtgan asrning 80-yillariga qadar tushuncha soʻziga sinonim sifatida ishlatilgan boʻlsa, bugungi kunga kelib uning izohi tushuncha terminiga nisbatan kengayganini koʻrish mumkin. Binobarin, N.Yu. Shvedova konseptni tushuncha ekanligini, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim

moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvcht, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini ta'kidlagan.

Konsept tushunchasini turli xil soha va yo'nalishlarda uchratishimiz va har bir sohada konseptning o'z ma'no va vazifasi borligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, psixolingvistika, tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyat-shunoslik sohalari nuqtai nazaridan konsept talqinlari ko'rib chiqilgan.

Psixolingvistika nuqtai nazaridan konsept insonning psixik hayot qonuniyatlariga bo'ysunuvchi, shaxsning bilish va muloqot jarayonida dinamik xarakterga ega.

Tilshunoslikda konsept lingvokognitiv va lingvomadaniy hodisa sifatida qaraladi. Kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik fanlarining asosiy mavzusi konsept bo'lib, u tafakkur birligi sifatida millatning ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi.

Kognitiv tilshunoslikda konsept hayotiy obraz, til birligini anglatuvchidir. Konsept orqali aniq tilni semantik oralig'i tuziladi. Konsept tabiatini tushuntirish va anglash til orqali kechadi. Konseptning o'zi tahlilsiz sistema, ammo boshqa konseptlar ostida harakat qiladi.

Konsept – bir millatga tegishli bo'lgan hayotiy tajriba natijalarini o'zida namoyon qilgan bilimlar va tasavvurlar yig'indisi, inson ongidagi hayotga, borliqqa bo'lgan munosabati, bir millatning nimadir haqida o'y-fikrlar, qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan termin. Shu bilan bir qatorda konsept xotiraning operativ birligi bo'lib, fikriy, lisoniy, konseptual tizimlar va ong tili, borliq bilimlarni o'zichiga oladi. Lingvomadaniy jihatdan konsept madaniyatning asosiy birligi hisoblanib, uning tarkibiga belgilar, etimologiyasi, konsept tarixi, zamonaviy asotsatsiyalari, unga munosabat yoki uni baholash kiradi. Kognitiv va til strukturasi bog'lab turuvchi birlikka konsept deyiladi. Lingvomadaniyatshunoslikda konsept quyidagi til birliklarida ifoda etiladi: leksik va frazeologik birliklarda; nutq birliklarida (so'z birikmasi, gap), grammatik tuzilishda. Keltirilgan til birliklarida konsept o'z mazmunining ma'lum qismini bera oladi. Konseptda lingvistik ifoda vositalari yotadi. Lingvistik vositalar konseptni so'z munosabatida lingvomadaniyatni namoyon qilishi uchun muhimdir. Leksik va frazeologik birlik til sistemasiga kiruvchi kommunikativ jarayonni talab etuvchi konseptlarda yashaydi. Konseptni to'liq anglash uchun bir-biriga o'xshash kategoriyalarni tushunish darkor. Bular qatoriga birinchi navbatda mantiqiy tushuncha va til ma'nolari kiradi.

Lingvomadaniyatshunoslikda konseptni bir tomondan so'z, ikkinchi tomondan tushuncha bilan munosabati o'rganiladi.

Demak, konsept lingvokulturologiyada eng faol qo'llanuvchi birlik sanaladi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Masalan, uy konsepti o'zbek kishilarining tafakkurida quyidagicha assotsiatsiyalanadi:

1. Yashash joyi - bino - ko'p qavatli uy - hovli - xonadon - oila
2. Katta, kichik, chiroyli, shinam, yorud, yangi, eski;
3. Mehribonlik uyi, dam olish uyi, madaniyat uyi.

Ko'chma ma'noli birliklarni yuzaga chiqaradi: uy ichi "oila a'zolari", uyi buzilmoq "er xotinning ajralishi", "eri o'lmoq (Buxoroda), uyi kuymoq "xonavayron bo'lmoq", "oila a'zolaridan kimdir o'lmoq" (Qashqadaryoda).

Lingvomadaniy konsept etnomadaniy xususiyatga ega bo'lgan va borliq haqidagi funksional ahamiyatga molik informatsiyani uzatadigan madaniyatning asosiy birligidir. U madaniy universalialarni ifodalaydi. Lingvomadaniy konsept tafakkurda mavjud boladi, u o'zida kognitivratsional va emotsional-psixologik mazmuni biriktiradi. Lingvomadaniy konsept barcha til egalari uchun dunyoqarash modeli vazifasini o'taydi. Lingvomadaniy konsept milliy xarakterning shakllanishiga tasir ko'rsatuvchi madaniyat vositasi hisoblanadi.

Lingvokulturologiyada madaniyat konseptlari alohida tadqiq etiladi. Madaniyatning asosiy konseptlari jamoaviy til ongida muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyatning asosiy konseptlari deganda mavhum otlar, xususan, vijdon, taqdir, qismat, iroda, gunoh, qonun, erkinlik, ziyohlar, vatan va h.k. tushuniladi. Madaniyat konseptlarini A. Ya. Gurevich ikki guruhga: "fazoviy", falsafiy kategoriyalar, ya'ni madaniyatning universal kategoriyalari (vaqt, makon, sabab, o'zgarish, harakat) hamda ijtimoiy kategoriyalar, ya'ni madaniyat kategoriyalari (erkinlik; huquq, haqiqat, mehnat, boylik, mulk)ga ajratadi. V. A. Maslova bunga yana bir guruhni - milliy madaniyat kategoriyasini ham ilova qiladi. Konseptlarni tahlil qilish jarayonida har qanday tilda madaniy o'ziga xos konseptlarning ko'pligi aniqlangan. Masalan, kartoshka konsepti madaniy o'ziga xos konseptlardan biri hisoblanadi. Kartoshka ruslar uchun nochor ovqatlanish etaloni, beloruslar uchun odatiy milliy taom, ikkinchi non, muhim ozuqa hisoblanadi. Yoki non konseptini olsak, o'zbeklar uchun non muhim ozuqa etaloni hisoblansa, koreys, yapon, xitoy xalqlari uchun muhim ozuqa hisoblanmaydi. ular uchun garuch asosiy ozuqa etaloni sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Xoshimova, N. (2019). External factors of associations' individuality. Scientific journal of the Fergana State University, 2(2), 134-136.
2. Makhmudovna, K. G. (2022). Creative Strategies to Improve Vocabulary Teaching. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10), 259-261.
3. Isaqjon, T. (2022). Strategies and techniques for improving EFL learners' reading skills. Involta Scientific Journal, 1(11), 94-99.

4. Bahridinov, M. M., Turgunov, D. B., & Tojiboyev, I. M. (2020). SOME PROBLEMS OF LEXICAL INVESTIGATION OF THE NOVEL ULYSSES BY JAMES JOYCE. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(1), 208-212.
5. Ahundjanova, M. (2022). THE NEEDS FOR IMPROVING LEARNERS' AUTONOMY IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES—AS A KEY FACTOR TO BOOST LANGUAGE LEARNERS. *Science and innovation*, 1(B6), 390-392.
6. Gafurova, N. I. (2021). Structural-semantic classification of construction terms in English and Uzbek languages. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 571-575
7. Mirzaaliyev, I., & Oxunov, A. (2021). EKVIVALENTSIZ LEKSIKANING O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA IFODALANISHI. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 209-212.
8. Абдухалимова, С. (2022). THE CONCEPT AND CONTENT OF INTERCULTURAL DISCOURSE. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 5(4).
9. Qizi, O. S. Z., & OGI, A. M. B. The Influence of Multilingualism in Learning a New Language.
10. Abdumutaljonovna, P. S. (2022). Main Characteristics of Advertising Discourse in Modern Linguistics. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 9, 173-176.
11. Nazirovich, A. U. (2022). TURIZMGA OID ATAMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI. *Conferencea*, 256-258
12. Nozima, G. (2021). Замонавий тилшуносликда термин тушунчаси ва кўп компонентлик терминларнинг таҳлили. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(6).
13. Muhammadiyeva, H., Mahkamova, D., Valiyeva, S., & Tojiboyev, I. (2020). The role of critical thinking in developing speaking skills. *International Journal on Integrated Education*, 3(1), 62-64.
14. Khoshimova, N. A. (2021). ASSOCIATIVE FIELDS OF THE COLLECTIVE AND INDIVIDUAL CONSCIOUS. *Theoretical & Applied Science*, (5), 436-439.
15. Kasimova, G. (2022). IMPORTANCE OF ICE BREAKING ACTIVITIES IN TEACHING ENGLISH. *Science and innovation*, 1(B7), 117-120.